MINTAQALARNING BARQAROR RIVOJLANISH MEZONLARI TAHLILI
ANALYSIS OF REGIONAL SUSTAINABLE DEVELOPMENT CRITERIA

Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich
Urganch Davlat Universiteti (UrDU) Stajor o‘qtuvchisi
Dunyouz@mail.ru
+998 99 537 75 77

Annotatsiya: Maqolada mintaqa barqaror rivojlanish mezon va ko‘rsatkichlari bo‘yicha qarashlar tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijalariga muvofiq tanlangan ko‘rsatkichlar asosida mintaqa va uning hududlaridagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik mezonlar baholangan. Natijalarga muvofiq mintaqa va uning hududlarini barqaror rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish; sanoat; qurilish; xizmatlar sohasi; investisiya; ish bilan bandlik; mintaqa.

Аннотатсия: В статье систематизированы взгляды на критерии и показатели устойчивого развития региона. Экономические, социальные и экологические критерии региона и его территорий оценивались на основе показателей, отобранных по результатам исследования. По результатам разработаны предложения по устойчивому развитию региона и его территорий.

Ключевые слова: устойчивое развитие; промышленность; строительство; сектор услуг; инвестиции; занятость; регион.

Abstract: This article systematizes views on the criteria and indicators for sustainable regional development. The economic, social, and environmental criteria of the region and its territories were assessed based on indicators selected from the research. Based on these findings, proposals for the sustainable development of the region and its territories were developed.

Key words: sustainable development; industry; construction; services sector; investments; employment; region.

Mintaqa iqtisodiyotini uzoq muddatli rivojlanishida uning asosiy ko‘rsatkichlarini barqaror darajasini ta’minlashga alohida e’tibor qaratamiz. Mazkur jarayonni tadqiq qilishda joriy vqatdagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni holatini baholaymiz.

Xususan quida keltirilgan manbada mintaqalar barqaror rivojlanish mezonlarini uchga bo‘lish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi[1]: atrof-muhit barqarorligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar; iqtisodiyot barqarorligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar; ijtimoiy sohaning barqarorligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar.

Fikrimizcha, mazkur yondashuvda moliyaviy mezonlarga ham e’tibor qaratishimiz zarur bo‘ladi. Chunki, bu mezon yirik hisobda iqtisodiyot mezon tarkibiga kiritilsada, moliyaviy resurslarning murakkabligi hamda omillarining o‘ziga xosligi bois alohida ko‘rilishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, mintaqalarda mavjud resurslar, ayniqsa tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik holati ham muhim hisoblanadi. Chunki, mintaqa ishlab chiqarishi, uning ixtisoslashuv darajasi hamda tarkibiy tuzilishi mazkur omillarga bevosita bog‘liq hisoblanadi.

Mazkur mezonlar davlat darajasida yuritiladi. Shunday bo‘lsada, ularning tarkibiy jihatlarini aks ettiruvchi ayrim kattaliklarni mintaqalar darajasida ham o‘rganish mumkin. Buni yanada aniqlashtirish uchun esa, mintaqalar bo‘yicha barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq tadqiqotlarga alohida to‘xtalib o‘tishni talab qiladi[2].

Iqtisodiy mezonlar zamirida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan sanoat, xizmatlar, qurilish hamda investisiyalar hajmini o‘rganamiz. Jumladan, dastlab sanoat bo‘yicha ko‘rsatkichlarni baholdik. Xorazm viloyatida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan sanoat mahsulotlari hajmi 2010-2024 yillar davomida o‘sgan. Ya’ni, 2010 yildagi 397,5 ming

1 Теоретические концепции устойчивого развития региона // https://ecogosfond.kz/wp-content/uploads/2019/04/206.pdf.
2 Магомедова М.М., Курбанова У.А.-И., Дахдуева К.Д. Концептуальные основы оценки и моделирования устойчивого развития региона как эколого-социально-экономической системы (на примере Республики Дагестан) // Юг России: экология, развитие. 2021. Т.16, N3. С. 191-199. DOI:10.18470/1992-1098-2021-3 191-199.

so‘mdan 2024 yilga kelib 14120,6 ming so‘mga yetgan va 35 barobarga oshgan (1-jadval).

Ushbu ijobiy o‘zgarish Urganch shahridagi sanoatning barqaror va yuqori o‘sish sur’atlari hamda Tuproqqal’a tumanida so‘nggi yillarda ishga tushirilgan yirik sanoat loyihalari hisobiga amalga oshgan. Shu bilan birga, Yangibozor, Yangiariq va Urganch tumanlari ham keyingi yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o‘sishi bo‘yicha ijobiy dinamikaga ega bo‘lmoqda.

Shunday bo‘lsada, Xorazm viloyatida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan sanoat mahsulotlari hajmi hududlar kesimida tahlil qilinganda, viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichi (14120,6 ming so‘m)ga nisbatan tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Ya’ni, yuqori ustunlik bo‘yicha Tuproqqal’a tumani alohida o‘rin tutmoqda. Mazkur tumanda aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan sanoat mahsulotlari hajmi 233851,6 ming so‘mni tashkil etib, viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichidan 16,5 barobar yuqori. Bu holat mazkur tumanda yirik sanoat loyihalarining ishga tushirilganligi, avtomobil sanoati korxonalari faoliyatini barqaror sur’atlarda rivojlanib borayotganligi bilan asoslanadi. Keyingi yuqori ko‘rsatkich Urganch shahriga tegishli. Bu yerda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari hajmi 26063,5 ming so‘m bo‘lib, viloyat o‘rtacha darajasidan 1,8 barobar yuqori bo‘lgan. Bu esa, hududning viloyat markazi ekanligi, unda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega sanoat korxonalari mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Viloyatning qolgan barcha hududlarida ko‘rsatkichlar viloyat o‘rtachasidan past. Jumladan, Yangibozor (8813,8 ming so‘m), Yangiariq (6154,0 ming so‘m), Urganch (5807,7 ming so‘m), Shovot (5426,0 ming so‘m) va Xonqa (5412,7 ming so‘m) tumanlari viloyat ko‘rsatkichidan past bo‘lsada, o‘rtacha holatlarga ega hisoblanadi.

Lekin, Xiva shahri (4394,5 ming so‘m), Gurlan (3644,8 ming so‘m), Bog‘ot

(3447,0 ming so‘m), Qo‘shko‘pir (2831,6 ming so‘m), Hazorasp (2949,4 ming so‘m) va Xiva tumanlarida (2396,5 ming so‘m) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari hajmi viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichidan 3-6 martaga past. Mazkur hududlarda sanoatni rivojlantirish uchun iqtisodiyotda tarmoqlar bo‘yicha diversifikatsiya siyosatini amalga oshirishimiz zarur. Ayniqsa, bunda ushbu hududlarda o‘sish nuqtalari asosida sanoat hududlarini barpo etishimiz sohani rivojlantirishning samarali usuli sanaladi.

Shu bilan birga, Xorazm viloyatida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan xizmatlar hajmi 2010 yildagi 545,7 ming so‘mdan 2024 yilda 14495,0 ming so‘mga yetib, 26,5 barobarga oshgan. Ushbu holat xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi roli ortib borayotgani hamda aholi daromadlari o‘sishi bilan bog‘liq. Jumladan, joriy narxlardagi xizmatlar hajmining aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan hajmi ijobiy darajada o‘sgan bo‘lsada, shahar va tumanlar kesimida notekis rivojlanishga ega bo‘lgan3.

Mintaqaning shahar va tumanlari kesimida viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan (14495,0 ming so‘m) qiyosiy tahlil qilganimizda eng yuqori ko‘rsatkich Urganch shahrida qayd etilgan va 41347,6 ming so‘mni tashkil etgan.

Ya’ni, ushbu hududdagi aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan xizmatlar hajmi viloyat o‘rtacha darajasidan 2,9 barobar yuqori. Mazkur holatni ma’muriy markaz sifatida xizmatlar bozori, moliyaviy institutlar, savdo va transport infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangani bilan asoslaymiz.

Qolgan hududlarda esa xizmatlar hajmi viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichidan past. Shunday bo‘lsada, o‘rtacha ko‘rsatkichlar Yangibozor (6514,9 ming so‘m), Urganch (6372,1 ming so‘m), Hazorasp (6006,2 ming so‘m), Yangiariq (5981,3 ming so‘m) va Tuproqqal’a (5974,5 ming so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi. Nisbatan past ko‘rsatkichlar esa, Xonqa (5525,6 ming so‘m), Xiva tumani (5340,1 ming so‘m),

3 Холматов С.Х. Барқарор ривожланиш индикаторлари ва қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантириш тушунчалари таҳлили // https://cdn.uza.uz/2024/01/12/09/33/4AnX4ja2Uw4P9o8xHk0JCi0jfckTr2qQ.pdf.

Gurlan (5140,5 ming so‘m), Bog‘ot (5061,3 ming so‘m), Shovot (4652,8 ming so‘m) va Qo‘shko‘pir (4641,7 ming so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Hatto, viloyatning turizm markazi sanalgan Xiva shahrida ham ushbu ko‘rsatkich qiymati 9329,5 ming so‘mni tashkil etib, viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichidan ortda qolgan. Bu jarayonni mazkur hududlarda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan xizmatlar sohasi rivojlanmaganligi, moliya bozorining shakllanmaganligi bilan asoslaymiz. Shu bois, xizmatlarni rivojlantirish uchun birichni navbatda, shahar va tumanlarda bozor infratuzilmasini rivojlantirish, moliya muassasalarini hamda xizmat turlarini kengaytirish zarur. Ayniqsa, xizmatlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy qilish zarur.

1-jadval

Xorazm viloyati va uning hududlarida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan sanoat mahsulotlari hajmi, ming so‘m[4]

Hudud nomi	**2010**	**2011**	**2012**	**2013**	**2014**	**2015**	**2016**	**2017**	**2018**
Xorazm viloyati	397,5	527,8	617,9	777,2	1130,0	1511,1	1590,83	2272,9	3547,3
Urganch sh.	1892,0	2421,1	2954,6	4034,9	4523,4	4377,3	6083,62	8526,0	10961,
Xiva sh.								825,8	1121,3
Bog‘ot	347,3	520,3	574,3	668,852	512,0	813,9	986,357	1246,3	1745,5
Gurlan	269,7	342,8	372,2	493,302	534,6	848,3	881,471	1294,4	2055,5
Qo‘shko‘pir	186,7	232,7	257,5	343,215	417,5	718,4	682,509	825,9	1023,2
Urganch	206,9	271,5	235,7	282,25	482,7	734,1	746,598	761,0	1053,2
Hazorasp	301,0	331,0	467,6	414,34	2555,9	3699,7	2927,95	5337,6	10829,

4 Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Tuproqqal'a									
Xonqa	373,5	613,5	706,4	894,693	912,9	1174,0	1338,27	1561,3	2024,4
Xiva	108,9	144,9	163,8	217,037	249,8	515,5	614,188	613,7	780,0
Shovot	257,2	391,1	500,0	668,157	711,9	1128,6	1226,25	1778,0	2725,6
Yangiariq	258,4	390,6	423,0	545,66	597,0	982,0	987,47	1228,6	1859,9
Yangibozor	344,9	419,9	450,0	497,03	558,3	979,9	915,062	1104,2	1311,9

Xorazm viloyati hududlarining 2010-2024 yillar davomidagi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlarining kompleks tahlili shahar hamda tumanlar rivojlanishi bir xil emasligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, yuqorida tahlil etgan sanoat, xizmatlar, qurilish, investisiyalar, bandlik, tibbiyot infratuzilmasi va ekologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha hududlar o‘rtasida nomutanosibliklar mavjud.

Yuqorida mintaqa barqarorligining iqtisodiy va ijtimoiy mezonlari hamda ularni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarni tahlil qildik. Barqaror rivojlanishning ekologik mezonlari ham yuqorida aytib o‘tganimizdek muhim bo‘lib, uni tavsiflashda atrof-muhitga zarali chiqindilarni tashlash bilan baholaymiz.

Demak, yuqoridagilar asosida mintaqa va uning hududlarida ish bilan bandlikni oshirish uchun samarali iqtisodiy siyosat yuritish zarur ekan. Bunda, mehnat resurslari zich hududlarda ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur bo‘ladi. Ayniqsa, mintaqa asosiy hududlari qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi ustuvorlikka egaligini hisobga olib, qayta ishlash hamda oziq-ovqat sanoatini rivojjlantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Теоретические концепции устойчивого развития региона // https://ecogosfond.kz/wp-content/uploads/2019/04/206.pdf.

2. Магомедова М.М., Курбанова У.А. И., Дахдуева К.Д. Концептуальные основы оценки и моделирования устойчивого развития региона как эколого социально экономической системы (на примере Республики Дагестан) // Юг России: экология, развитие. 2021. Т.16, N3. С. 191-199. DOI:10.18470/1992-1098-2021-3 191-199.

3. Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi ma’lumotlari.

4. Холматов С.Х. Барқарор ривожланиш индикаторлари ва қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантириш тушунчалари таҳлили // https://cdn.uza.uz/2024/01/12/09/33/4AnX4ja2Uw4P9o8xHk0JCi0jfckTr2qQ.pdf.